

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

S.MAHMUDOVA	
“Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA
X.Kadirov, B.Xamdamov	
Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
L.Yoʻldosheva	
Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
M.Alimjanova	
Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
B.Xaydarov	
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
G.Absalamova	
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.....	28
F.Mirzayeva	
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
	IQTISODIYOT
T.Xaydarov, B.Karimov	
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
	FALSAFA, SIYOSAT
N.Hakimov, D.Amrudinova	
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
I.Raximov	
Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari	48
R.Isamutdinov	
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
S.Xoliqov	
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari	57
	TARIH
M.Xurramov	
1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
R.Arslonzoda	
Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
I.Gʻulomov, Z.Kasimova	
Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish	76
Gʻ.Haydarov	
Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
G.Dadamirzayeva	
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati	88
A.Abdovali	
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
M.Darmonova	
“Katta qirgʻin”ning yosh qurboni.....	103
L.Sokolova	
Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari	107
O.Zaripov	
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113

“TARJIMON” GAZETASIDA TURKISTONDA YER-SUV MASALALARINING
YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ В ГАЗЕТЕ “ТАРДЖИМАН” ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫХ ВОПРОСОВ В
ТУРКЕСТАНЕ

LAND-WATER ISSUES IN TURKISTAN IN THE “TARJIMAN” NEWSPAPER

Zaripov Odil Olimjonovich¹

¹Zaripov Odil Olimjonovich

– O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Tarix institutitayanch doktoranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi istibdodi davrida Turkistonda yer-suv munosabatlarida olib borilgan mustamlakachilik siyosati jadidchilik yo‘lboshchisi Ismoil Gasprinskiy va uning “Tarjimon” gazetasi materiallari asosida yoritilgan. Maqolada shuningdek, Turkistonning ilk matbuot nashrlaridan “Taraqiy”, “Tujjor” va “SHuhrat” gazetalari materiallaridan ham foydalanilgan. Maqoladagi fakt va ma‘lumotlar tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida mikrotarix, miqdoriy, tizimli, kontent tahlil va muammoviy-xronologik usullardan foydalanilgan.

Аннотация

Статья освещает царскую колониальную политику в отношении земельных и водных вопросов в Туркестане на материалах лидера джадидов Исмаила Гаспринского и его газеты «Тарджимон». В статье также использованы материалы первых туркестанских изданий «Таракки», «Туджар» и «Шухрат». Факты и информация в статье изучены по принципу историчности. В процессе исследования использовались микроисторический, количественный, системный, контент-анализ и проблемно-хронологический методы.

Abstract

This article is based on the materials of the Jadid leader Ismail Gasprinsky and his newspaper “Tarjimon”, the colonial policy of land and water relations in Turkestan during the oppression of the Russian Empire. The article also used materials from the first Turkestan publications, “Taraqqi”, “Tujjor” and “Shuhrat”. The facts and information in the article have been studied based on the principle of historicity. The research process used microhistory, quantitative, systematic, content analysis and problem-chronological methods.

Калит сўзлар: Ismoil Gasprinskiy, Turkiston, Bog‘chasaroy, Toshkent, yer egaligi, ko‘chirish siyosati, paxta, soliqlar, sug‘orish ishlari.

Ключевые слова: Исмаил Гаспринский, Туркестан, Багчисарай, Ташкент, землевладение, переселенческая политика, хлопок, налоги, ирригация.

Key words: Ismail Gasprinsky, Turkestan, Bogchasaroy, Tashkent, land tenure, resettlement policy, cotton, taxes, irrigation.

KIRISH

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanib, Turkiston general-guberantorigi tuzilgach, bosh maqsad o‘lka iqtisodiyotini imperiya iqtisodiyoti manfaatlariga bo‘ysundirishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati amalga oshirila boshlandi. Ma‘lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyada to‘qimachilik sanoatining tez sur‘atlar bilan rivojlanib xom-ashyoga bo‘lgan talabning o‘sib borishi, buning ustiga, ayni vaqtda Amerikadan olinadigan paxta eksportining to‘xtab qolish xavfining tug‘ilishi podsho hukumati ma‘muriyatini O‘rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish bilan jiddiyroq shug‘ullanishga majbur etgan edi. Bir tomondan paxtani kengaytirish, ikkinchi tomondan rus muhojirlarini joylashtirish zarurati O‘rta Osiyoning yirik daryo havzalarida dehqonchilik uchun yaroqli bo‘lgan quruq va bo‘z yerlarning o‘zlashtirilib yangi paxtachilik yerlarini barpo etilishini talab qilardi.

Ma‘lumki, aksariyat tadqiqotchilar mustamlaka davri tarixini yoritishda asosan rus manbalari: qonunlar, hisobotlar, statistik to‘plamlar hamda davriy matbuoti nashrlariga tayanishadi. Toshkentda chiqqan “Turkestarskie vedomosti” yoki uning o‘zbek tilidagi nusxasi “Turkiston viloyatining gazetasi” Turkistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yorituvchi qimmatli manba hisoblanadi. Biroq ushbu gazetalari rus ma‘muriyati tomonidan nashr etilgan. Shu sababli ulardagi ma‘lumotlar mustamlaka hukumati nazorati ostida chiqarilgan. Hukumat gazetalari bilan birga

mazkur davrda Qrim va Volgabo'yi jadidlari matbuoti ham ommalashgan edi. Ular ichida Bog'chasaroyning "Tarjimon" va Orenburgning "Vaqt", "Sho'ro" gazetalarini Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini keng yoritganligi bilan ajralib turadi.

"Tarjimon" [ترجمان] - Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy-musulmon halqlarning dastlabki bosma nashrlaridan. U turkiy-musulmon halqlar orasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda muhim rol o'ynadi. Gazeta, dastlabki sonlardayoq Ismoil Gaspinskiy tomonidan ilgari surilgan "Tilda, fikrda, ishda birlik" shiori asosida faoliyat yuritadi. "Tarjimon" mustamlaka davri Turkiston tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur gazeta sahifalarida o'lka iqtisodiyotining asosi bo'lgan yer va suv munosabatlariga oid maqolalarni ko'rish mumkin. Ta'kidlash kerakki, ushbu maqolalar qishloq xo'jaligi masalalarini xolis yoritganligi va unga Turkiston aholisining manfaatlari yuzasidan yondashib, baho berilganligi bilan qimmatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turkiston tarixini yoritishda "Tarjimon" gazetasi manba sifatida kam tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar ichida Z. Abdirashidovning [1] tadqiqotini alohida qayd qilish mumkin. Aytish mumkinki, gazeta materiallari o'lkadagi qishloq xo'jaligi masalalarini yoritish jihatidan o'rganilmagan. Ushbu maqolada Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida yer-suv munosabatlari masalalari "Tarjimon" gazetasi maqolalari asosida yoritilgan. Maqoladagi fakt va ma'lumotlar tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida mikrotarix, miqdoriy, tizimli, kontent tahlil va muammoviy-xronologik usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ismoil Gaspirali "Tarjimon" sahifalarida rus hukumatining Turkistonda yer egaligi va ko'chirish siyosatini tahlil qilar ekan, "hukumat milliy bo'linish siyosatini" olib boriyapti deb qayd etgan edi. "Bir millat bo'lmish o'lka musulmonlarini faqat etnik kelib chiqishi va hayot tarziga qarab, o'troq aholi uchun "shariat", ko'chmanchi aholi uchun "odat" qoidalariga alohida ajratish, rus dehqonlariga yer berilib, tatarlarga ekin yerlarini sotib olishga ta'qiq qo'yilganligini" [18: 27-28] tanqid qiladi. Gap shundaki, 1886-yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" qabul qilinib, ushbu nizom ko'ra yer egaligi munosabatlarida o'troq va ko'chmanchi aholi tushunchalarga urg'u berildi. Shuningdek, Turkistonni boshqarish to'g'risidagi 1886 yilgi Nizomning 262 moddasiga asosan tatarlarga yer sotib olishga ruxsat bo'lmagan.

1886-yilgi nizomning qabul qilinishigacha o'lka ma'murlarning asosiy g'oyasi Turkistondagi barcha yerlarni davlat mulkiga aylantirib, aholini davlat yerlaridan foydalanish uchun belgilanadigan "obrok" solig'iga tortish bo'ldi. Faqatgina, 1886-yilgi nizom bilan bu g'oya to'xtab, xususiy mulkchilik qisman tan olinib, aholiga yer "pozemelniy" solig'ini yuklash belgilandi. Obrok esa davlat hisobidagi barcha turdagi: ekin yeri, bog'lar, tomorqalar, qishloq xo'jalik binolari, bozor yerlaridan foydalanganlik uchun olinadigan bo'ldi. Bunday yerlardan aholi oldindan 1/3 miqdorida garov to'lash sharti bilan ijara asosida foydalanardi.

Turkiston yer soliq tizimi 1886-yilgi Nizomning 285-331 moddalari bilan tartibga solinardi. Unga ko'ra, o'troq aholi uchun sug'orma yerlardan umumiy daromadning 10%, ko'chmanchi aholi uchun 4 rubl miqdoridagi o'tov solig'i belgilandi. Biroq ushbu tartib 1891-yil va 1900-yilgi yo'riqnomalarga muvofiq o'zgarib borgan. Misol uchun "Tarjimon"ning ma'lumotiga ko'ra, 1890-yilda Rossiya moliya vaziri Turkistonda o'troq aholi uchun yer-mulk solig'ini joriy qilish bo'yicha ko'rsatma berdi [24: 2]. 1900-yil 10-iyunda esa Turkistonning markaziy viloyatlari: Sirdaryo, Samarqand va Farg'onada lalmi va umuman ishlov berilmaydigan yerlarga ham soliq to'lash shart qilib qo'yildi. Hatto, 1908-yil 22-yanvardan davlat Dumasi Turkistonda ekin yerlarida soliq yig'ish to'g'risidagi qonun ham qabul qilindi [5: 3].

Qaramlik davrida paxta masalasi ham Turkiston yer egalari uchun boshida farovonlik yo'li sifatida qaralgan bo'lsa-da, aksariyat aholi uchun oxir oqibatda halokatli bo'lib chiqdi. Turkiston o'lkasi markaz uchun to'qimachilik sanoatining xom ashyo bazasi edi. Shuning uchun ham bu yerda har jihatdan paxtachilik sanoatiga asosiy urg'u berilib, sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ammo hukumat bu ishni o'lkada mavjud mahalliy qishloq xo'jaligi imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tizimini tashkillashtirish ishlariga davlat xazinasida mablag' xarajat qilmay, rag'batlantirish va homiylik yo'li bilan amalga oshirdi.

Gasprinskiy paxta sanoati bilan shug'ullanadigan turkistonliklarga yangi yerlarni o'zlashtirish orqali paxta savdosini kengaytirishni taklif qiladi [6: 2]. Bu chaqirig'i bilan u mahalliy aholiga paxta

TARIX

sanoati uchun o'lkaga kirib kelgan yirik rus sarmoyadolariga qaram bo'lmashliklari kerakligini tushuntirmoqchi edi.

Paxta yerlarini ko'paytirish kompaniyasi g'alla yerlarini kamaytirish evaziga amalga oshirilardi. Albatta, bu ahvol halq noroziligini keltirib chiqargan. Aholiga oziq-ovqat yetishmovchiligi va narxlarining oshishiga Xitoy bilan urush boshlanishi sabab qilib tushuntirilayotgan hech qanday asoslarga ega emas. Asl sabab esa yerlarga katta miqdorda paxta ekilganligidir [25: 2]. Buning natijasida esa, Toshkent bozorlarida un narxi keskin ko'tarilib ketdi [22: 2] - deb izohlaydi ushbu holatni "Tarjimon" gazetasi. Shuningdek, gazetada "paxta vasvasasi" tufayli ekin yerlarning narxi ko'tariladi. Misol uchun, Andijonda paxta yerlari juda qimmat, ularning ijara narxi ham ko'tarilgan [3: 2].

Ta'kidlash kerakki, suvni ko'p talab qiladigan paxta yerlari o'lkada azaldan mavjud sug'orish tizimlari orqali sug'orilardi. Bu esa o'z navbatida sug'orish suviga bo'lgan katta ehtiyoj va muammolarni keltirib chiqardi. Turkistonda yerlarga sug'orish suvi yetmayapti, mahalliy ma'murlar suv taqsimotini tartibga solishi kerak [29: 4]. G'allaquduqda ikki qishloq aholisi o'rtasida suv taqsimoti ustida janjal kelib chiqib bir kishi o'ldirilgan, 4 kishi jarohatlangan [8: 3] ya'ni paxta yerlarining ko'payishi va suv yetishmovchiligi ortidan qishloq jamoalari o'rtasida suv ustida nizolar kelib chiqqan.

Sug'orish tizimlarini o'z nazorati ostiga olish uchun ma'murlar suv xo'jaligi boshqaruv tizimida ham o'zgarishlar qildi. Rus hukumati ariq oqsoqollarini saylov orqali tayinlash mahalliy tartibga muvofiq ekanligini ta'kidlasa-da, biroq bu saylov rus ma'muriyati nazorati ostida, cheklangan va belgilangan saylovchilar ishtirokida o'tardi. Misol uchun, 1907-yil 2 oktyabr kuni ariq oqsoqollari saylovi Toshkent dumasida, uning a'zolari ishtirokidagina o'tkazilgan [14: 2]. Suv taqsimoti bo'yicha aholidan hukumatga arizalar tushmagan ariq oqsoqollari yangi muddatga qaytib saylanib, ularning oylik maoshlari 10 so'mga oshirilgan. Oylik maosh har bir mas'ulga tegishli hudud kengligidan kelib chiqib 40 so'mdan 50 so'mgacha edi. Shuningdek, ushbu majlisda "starshiy mirab" atamasini ariq oqsoqoli nomiga o'zgartirishga ham qaror qilingan.

O'lkada paxtachilik ortidan yer-suv sohasida yuzaga kelayotgan muammolar to'g'risida "Tarjimon" tahririyatiga turkistonliklar tomonidan murojaat xatlari ham kelib turgan. Mahalliy ma'muriyatdan muammosi yechilmasligini bilib, hafsalasi pir bo'lgan aholining o'z dardini Bog'chasaroyga bo'lsa ham aytib, yechim topishga urinishgan. Shunday xatlardan biri toshkentlik Abdurahmon Oxunjonov tomonidan yuborilgan bo'lib, o'lkadagi agrar tizim ahvolini qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi. "Toshkent va Farg'ona dalalarida asosan amerika paxtasi yetishtiriladi, u esa o'z navbatida ko'p suv (iste'mol) talab qiladi. Suv tanqisligi natijasida ko'plab bog'lar quridi" [12: 1-2]. Yerlardan hukumat har desyatinadan 7 rubl soliq talab qilmoqda, bu esa paxtachilik rivojiga to'sqin bo'lmoqda. Murojaatda xat muallifi bu muammoni yechish uchun, suvni adolatli bo'lish, Samarqand temir yo'li orqali yuk tashishni tartibga solish, paxtachilik rivojlantirish uchun kredit oluvchilarga joylarda davlat bankining filiallarini ochilishlari, mahalliy tillarda paxtachilikka oid qo'llanmalar chop qilish kabi takliflarni beradi.

Aytish joizki, Turkistonda paxtachilik, bog'dorchilik hamda sug'orish ishlariga bag'ishlangan o'zbek tilidagi "Dehqon" nomli ilk jurnal "Ziroatchilik ishlariga yordam jamiyati" tomonidan 1915-yildan chiqqa boshladi. Ushbu jurnalning mas'ul muharriri A. Novikov bo'lib, u faqat rus agronomlari maqolalarining tarjimasidan iborat edi [30: 6].

Paxta yetishtirishning rivojlanishi natijasida mahalliy yer egalari va dehqonlar ham bu sohaga katta e'tibor berib davlat banklaridan turli xil kreditlar olib, amerika paxtasini ekishga e'tibor qaratishdi. Biroq bu sohadagi bilimlarning yetishmasligi, huquqiy me'yor va kafolatlarning yo'qligi sabab ushbu soha doim ham katta foyda keltirmagan. Misol uchun, 1907 yili kuzning juda sovuq kelishi natijasida Toshkent boshqa ekinlar bilan birga amerika paxtasini ham sovuq urib ketadi va yer egalari katta zarar ko'rishadi. Paxtaning bir botmoni 225 tangaga chiqadi [14: 2].

Aytish mumkinki, Turkistonni paxta yetishtirib berish maydoniga aylantirish Rossiya imperiyasining o'lka qishloq xo'jalik sohasida olib borgan yagona siyosati emas edi. Imperiyaning qishloq xo'jaligi sohasidagi siyosati ikki asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Birinchidan, o'lkani arzon xom ashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirish bo'lsa, ikkinchidan esa Rossiya viloyatlaridagi yersiz dehqonlarni Turkistonga ko'chirish va ularga yer ajratish rejasini ko'zlardi.

Turkistonda hozir egasiz bo'sh yerlar mavjud emas, shuning uchun ko'chib kelayotgan muhojirlar qayerga ko'chirishlari kerakli to'g'risida aniq ma'lumot olishlari kerak [18: 2-3]. Turkiston ma'muriyati bo'sh yerlar yetishmovchiligi haqida e'lon qilgandan keyin ham 3 ming kishi ko'chib keldi [28: 3] – deydi “Tarjimon”. Qishloq xo'jaligi vazirligida Turkistonda rus manzilgohlarini tashkil qilish va muhojirlar uchun ekin yer tayyorlashga mas'ul maxsus mansab joriy qildi [13: 3]. General-gubernator talabiga binoan rus muhojirlariga harbiy kazaklarga tegishli (istilo vaqtida egallangan O.Z.) 130 ming desyatina yerni sotib olishga va buning qo'chirish qo'mitasi hisobidan pul ajratishga ruxsat berildi [4: 2]. Qozoq yerlariga rusalarni ko'chirish noqonuniy, hududdagi barcha yerlar mahalliy aholiga tegishlidir [27: 1]. Toshkent uezdining Talash mavzesida aholi ekin yerlarini o'lchashga kelgan tanobchi (zemlemer) qarshilik ko'rsatishibdi [7: 2]. Mirzacho'l yerlariga suv chiqarildi, ushbu hududda tayyorlangan yerlarning barchasi rus muhojirlariga ajratilgan, gubernator mahalliy aholiga ham yer ajratsa yaxshi bo'lardi [16: 1]. Mirzacho'lda kanal o'tkazilib, yangi yerlar ochilgan bo'lsada hukumat ularni rus muhojirlariga berishni ko'zlardi.

Ushbu muammoni mahalliy gazetalar ko'tarib chiqishgan. Misol uchun, Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetasida: “Rossiyada yer ko'p lekin ular knyazlar qo'lida... Turkistonga yer izlab ko'makg'a, hijrat qilmakka majbur bo'ldilar. Hozirda Turkistonga har yili ming, minglab ko'chib kelib, hukumat vositasi ila musulmonlarni, Turkiston yerlarini tortib olib joylashmoqda o'lg'on mujiklar Yevropoyi Rusiyada yersizlikdan och qolg'on faqir dehqonlardir [20: 2], deb qayd qilingandi. Bu maqolada gazeta rus dehqonlarining ko'chishida ayb ushbu ko'chirilayotganlarda emasligi, asosiy omil hukumatning va zodagonlarning adolatsiz siyosatida ekanligiga sha'a qilgan. Gap shundaki, 1861 yil Rossiyada krepostnoy huquqining bekor qilinishi bilan ko'plab dehqonlar yersiz qolishib, unumli yerlar zodagonlar qo'lida qolgan edi. Davlat yersiz dehqonlarga yer ajratish bo'yicha yuritgan siyosati ham to'lovlarning qimmatligi sabab natija bermadi. Buning chorasi o'laroq rus hukumati yangi egallangan Turkiston yerlariga yersiz dehqonlarni ko'chirishni va shu orqali ushbu hududda o'z koloniyalarini mustahkamlash siyosatini ma'qul ko'rdi. Albatta bu haqiqatning mahalliy gazetalarda yoritilishi rus hukumatini tashvishga solardi. Chunki buning natijasida mahalliy aholi orasida norozilik kelib chiqishi xavfi bor edi. SHunga o'xshash muammolarni ko'tarib chiqqanligi uchun Shuhrat gazeta hukumat ta'qibiga uchrab faqatgina o'nta soni chiqib bir yilga bormay yopildi.

Soliqlar miqdorining yuqoriligidan Toshkent uezdi Maydantol, Chinoz, Xurdan, G'oibota, Jaloltepa volostlari aholisi o'zlarining ishlov berilgan va dehqonchilik uchun qulay bo'lgan ekin yerlaridan voz kechishmoqda. Aholi voz kechayotgan yer miqdori 10 ming desyatini tashkil qiladi. Bu muammoning sabablaridan biri soliqlarning har desyatidan 2 rubldan 9 rublgacha olinishidan tashqari, soliq yig'imining adolatsiz taqsimlanganidir [22: 134]. Bu taqsimotga ko'ra, ayrim yerlar hosildan beriladigan daromad solig'idan tashqari 20 rubl yer uchun mulk solig'i to'lashi kerak. O'lka ma'muriyati esa aholini qo'llab-quvvatlash, ularga yordam berish o'rniga shu vaziyatda ham muammoni o'z foydasiga hal qilishga harakat qildi. Misol uchun, rus ma'murlaridan biri yuqorida tilga olingan Maydantol aholisidan 1000 destina yerni juda arzon narxda, har desyatini uchun 3 rubldan sotib olgan. Keyin esa aynan shu yerni bir desyatini uchun 25 rubldan narxlab sotgan [11: 119].

Umuman olganda, sug'orma yerlari dehqonchilik uchun qulay bo'lgan Toshkent va uning atrofidagi yerlar doim qimmat baholanib kelgan. Misol uchun, yer sotilishi to'g'risidagi e'longa ko'ra “Niyozbek volosti Qorabosh ovulida 80 tanob (13600 desyatina) yer sotilur, atrofi daraxt va katta ariqlar ila o'rlagan, har tomoni 2001 sajen, sajani 50 so'mdan (rubl O.Z.)” [10: 6]. Ya'ni yer sajenda hisoblanganiga qaraganda maydoni bir desyatina ham bo'lmagan (Bir desyatina – 2400 kv. sajenga teng – O.Z.). Shunday bo'lsa-da, yer yuqori narxda baholanayapti.

Albatta bu kabi qulay va qimmat yerlarni jiddiy sabab bo'lmasa aholi sotmas edi. Aynan yerga solingan og'ir soliqlargina mahalliy aholini ushbu yerlarni sotishga majbur etgan.

Er oldi-sotdi ishlarini ham nazorat qilishni mustamlaka ma'murlari o'z qo'llariga olishgandi. Misol uchun, yer oldi-sotdi amaliyotida qozilarga faqatgina narxi 300 so'mgacha bo'lgan xususiy yerlar uchun vasiqa rasmiylashtirishni huquqini berib, katta yerlarni hujjatlarini esa rus notariuslari vakolatiga o'tkazdi [2: 2]. Rus hukumati Turkistonda qozilik mahkamalarini saqlab qolgan bo'lsa-da, ushbu mahkama faqat mayda fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish vakolatiga ega edi. Buning ortidan notarius orqali oldi-sotdi amaliyotini tushumlarini davlat xazinasiga tushurish va soliq nazoratini kuchaytirish ko'zda tutilgandi.

TARIX

Ammo Turkiston aholisi rus ma'muriyati kiritgan yangi tartiblarga tez moslasha olmadi. O'rnatilgan rus qonunlarining ishlash tamoyillari va ish yuritish hujjatlarini tushunmaslik, til bilmaslik kabi to'siqlar aholi uchun jiddiy muammo tug'dirardi. Buning oqibatida yer egaligi masalasida jiddiy muammolar kelib yuzaga kela boshladi.

Toshkentda qishloq xo'jaligi vaziri raisligida o'tgan majlisi quyidagi qarorga keldi: sug'orish tizimini isloh qilish, ekin yerlarni kengaytirish, oziq-ovqat ekinlari o'rniga paxta yerlarini ko'paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari Rossiyadan keltiriladi [9: 3].

Palen komissiyasi o'tkazgan taftishlar natijasida yerlarni majburan rus ko'chirilganlari foydasiga o'tkazilganligi aniqlandi. Shuningdek, o'lkada yerlarni sug'orish ishlarining nodavlat tashkilotlarga berilishi, mahalliy aholining yer egaligi va suvdan foydalanish huquqining cheklanishi olib kelishi bildirildi [26: 2]. Palenning Turkiston haqidagi hisobot chop etildi, uni nashr qilish uchun 30 ming rubl kerak bo'ladi. Hisobot juda batafsil yozilgan va bir necha jildan iborat, shundoq bo'lsada o'lkadagi yer masalasi ochiq qoldi. Peterburgdagi amaldorlar o'lkadagi ahvoldan hamma xabardor bo'lishi xohlamadilar. Shuning uchun bu masalalar ochiq qoldi, aftidan Turkiston yana eski usulda boshqarilishda davom etsa kerak [25: 6].

XULOSA

Haqiqatan ham "Tarjumon" gazetasining mazkur bashorati to'g'ri chiqib, rus hukumatining o'lkada agrar soha boshqaruvidagi siyosati o'zgarishsiz qoldi. Shunday qilib, "Tarjumon" gazetasi sahifalari orqali Turkiston aholisi iqtisodiyotning asosini tashkil etgan yer va suv xo'jaligi sohasi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida qonuniy va ijtimoiy-iqtisodiy jabhada rivojlantirilmaganligini ko'rish mumkin. Aksincha mavjud sug'orma yerlarda paxta monopoliyasi o'rnatilib, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat yetishtirish imkoniyatlari cheklandi. Aholiga tegishli bo'lgan yerlar ko'chirish siyosati natijasida noqonuniy ravishda tortib olindi. Doimiy ravishda o'sib borgan soliqlar natijasida o'lkada qishloq xo'jaligi tanazzulga yuz tutib, aholi esa og'ir iqtisodiy ahvolga tushdi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдирашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете "Таржуман", 1883-1917. – Department of Islamic Area Studies. Center for Evolving Humanities. Graduate School of Humanities and Sociology. The University of Tokyo, 2011.
2. An-naasu a'laa dini muluukihim. - Toshkent. // Taraqqiy, 1906, № 6. S. 2.
3. Axbori doxiliya. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1904, № 36. S. 2.
4. Axbori doxiliya. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1906, № 98. S. 2.
5. Axbori doxiliya. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1908, № 7. S. 3.
6. Gasprinskiy I. Pamuk – paxta tijorati. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1887, № 31. S. 2.
7. Doxiliya xabarlar. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1911, № 27. S. 2.
8. Doxiliya xabarlar. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1911, № 36. S. 3.
9. Doxiliya xabarlar. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1912, № 15. S. 3.
10. Er sotiladur. - Toshkent. // Shuhrat, 1907, № 10. S. 6.
11. Земельные дела i delishki. - Sankt- Peterburg. // Novoe vremya, 1908, № 469. S. 119.
12. I.Gasprinskiy. Pamuk ziroati. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1890, № 2. S. 1-2.
13. Mavarounnahr. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1903, № 26. S. 3.
14. Mavze' xabarlar. - Toshkent. // Tujjor, 1907, № 9. S. 2.
15. Maktuboti xufya. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1905, № 108. S. 212.
16. Mirzorobot sahrosi. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1913, № 234. S. 1.
17. Muzaferov, Yu. 262-ya stat'ya polojeniya ob upravlenii Turkestanskogo kraja. - Tashkent // Tashkentskiy kur'yer. 1908, № 152.
18. Muhojirat. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1896, № 50. S. 2-3.
19. N.Kurbatov. G'o'zachilik xususida. // Dehqon, 1915, № 1. S. 6.
20. Rusiya mahkumasida yer boyligi. - Toshkent. // Shuhrat, 1907, № 3. S. 2.
21. Toshkand bozori. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1904, № 36. S. 2.
22. Toshkand. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1901, № 34. S. 134.
23. Tuproq alumi. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1890, № 4. S. 2.
24. Turkiston viloyatining gazetidan. Toshkand. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1893, № 46. S. 2.
25. Turkiston taftishi. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1910, № 21. S. 6.
26. Turkiston tuproqlari. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1909, № 52. S. 2.
27. Turkiston tuproqlari. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1911, № 28. S. 1.
28. Turkiston. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1897, № 14. S. 3.
29. Turkistonda suvsizlik. - Bog'chasaroy. // Tarjimon, 1911, № 31. S. 4.
30. Ushbu jurnalning mas'ul muharriri A.Novikov bo'lib, u faqat rus agronomlari maqolalarining tarjimasidan iborat edi. Misol uchun qarang: N.Kurbatov. G'o'zachilik xususida. // Dehqon, 1915, № 1. S. 6.

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)